



Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin

01-16-327

1.08.2025-yil

“Tasdiqlayman”

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri



K.Sharipov

2025-yil “31”-iyul

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 2-yarim yillik
ISH REJASI**

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas’ullar
1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturidagi ustuvor vazifalar			
1.	Oliy ta’lim muassasalarida “Top-500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 12 ta qo’shma ta’lim dasturlarini ekspertizadan o‘tkazish va qabul kvotalarini tasdiqlash.	2025-yil oktabr	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamanazarov
2.	Yoshlarning chet tillariga qiziqishlarini oshirish hamda o‘rgatish maqsadida joylarda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan o‘quv markazlarini tashkil qilish hamda malakali o‘qituvchilar bilan ta’minlash choralarini ko‘rish.	2025-yil davomida	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamanazarov
3.	Respublika oliy ta’lim tashkilotlariga (bakalavriat, magistratura, ikkinchi oliy ta’lim va boshqalar) qabul jarayonlarini tashkil etish va yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrovini 44 foizga yetkazish.	2025-yil avgust-oktabr	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamanazarov
4.	Respublikadagi kamida 1 ta oliy ta’lim muassasasini nufuzli xalqaro reytinglarning birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish.	2025-yil dekabr	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, / D.Umarov
5.	5 ta oliy ta’lim muassasalarining ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish.	2025-yil dekabr	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi /

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
			D.Umarov
6.	Vazirlik rahbariyatining jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarini shaxsiy va sayyor qabullarini tashkil etish.	Yil davomida tasdiqlangan jadvalga asosan	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / S.Sadullayev
7.	Yosh olimlarni xorijiy stajirovkalarga yuborish tizimini takomillashtirishni nazarda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqish.	2025-yil oktabr	Innovatsion rivojlanish agentligi, / Sh.Rajabbayev
8.	Ilmiy laboratoriyalarni asbob-uskunalar bilan jihozlash tartibini takomillashtirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqish.	2025-yil noyabr	Innovatsion rivojlanish agentligi, / Sh.Rajabbayev
9.	Kasbiy ta'lim muassasalarida malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar ulushini 36 foizga yetkazish.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / Sh.Sharofaddinov
10.	Vazirlar Mahkamasining “Ko'kdala tuman 2-son politexnikumni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarori loyihasi ishlab chiqish.	2025-yil iyul	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / Sh.Sharofaddinov
11.	Vazirlar Mahkamasining “Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar politexnikumi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarori loyihasi ishlab chiqish.	2025-yil iyul	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / Sh.Sharofaddinov
12.	Shinjon ekologiya va geografiya institutining Markaziy Osiyodagi qo'shma ilmiy-tadqiqot markazini tashkil qilish.	2025-yil 25-sentabr – 5-oktabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / J.Musayev
13.	Ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi innovatsion (spin-off) korxonalar sonini 28 taga yetkazish.	2025-yil 25-iyul	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / J.Musayev

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
14.	Aholini favqulodda vaziyatlar, kuchli zilzilalar va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy ofatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlash tizimini rivojlantirish.	2025-yil 26-avgust	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, / J.Musayev
15.	Til va adabiyot, tarix, arxeologiya, ma'naviyat, madaniyat va san'at kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishlarida fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish.	2025-yil 25-sentabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, / J.Musayev
16.	Fanlar akademiyasini rivojlantirish strategiyasi bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqish.	2025-yil 25-sentabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, / J.Musayev
17.	“Yosh kitobxon” tanlovini qo'shimcha ravishda 6 ta tilda (qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg'iz va turkman) o'tkazish.	2025-yil dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi / N.Kasimov, A.Akramov
18.	Oliy ta'lim muassasalari talaba yoshlari o'rtasida “Mening O'zbekistonim” videorolik tanlovini o'tkazish.	2025-yil oktabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi / N.Kasimov, A.Akramov
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar			
1.	O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga 1320 ta davlat buyurtmasi parametrlarini ajratish.	2025-yil avgust	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamanazarov
2.	Chet el fuqarolari uchun xalqaro CEFR talablariga muvofiq o'zbek tilini bilish darajasi to'g'risida maxsus sertifikat berish tizimini joriy qilish.	2025-yil dekabr	Bilim va malakalarni baholash agentligi / M.Karimov

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
3.	Chet tili va umumta'lim fanlaridan respublikada tan olingan xalqaro va milliy sertifikatlarni "yagona nuqta" tamoyili bo'yicha shartnoma asosida verifikatsiya qilish va elektron ma'lumot taqdim etishning raqamlashgan tizimini yaratish	2025-yil dekabr	Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi "Ilmiy-o'quv amaliy markazi" davlat muassasasi / M.Karimov
4.	Kasbiy ta'lim tashkilotlarining ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifasini berish.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / Sh.Sharofaddinov
5.	Texnikumlarda xalqaro (Buyuk Britaniyaning "Pearson", Germaniyaning "Avestos" va "Ausbildung", Saudiya Arabistonining "Acwa Power") ta'lim dasturlari bo'yicha o'quvchilarni o'qishga qabul qilish hamda o'quv jarayonini boshlash.	2025-yil sentabr - oktabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / Sh.Sharofaddinov
6.	Oliy ta'lim tizimida 65,0 mln dollarlik xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish.	2025-yil davomida	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / Z.Jo'rayev
7.	Oliy ta'lim tashkilotlarining 2-3-bosqich talabalarining o'quv dasturlarini TOP-300 talikdagi oliy ta'lim tashkilotlari o'quv dasturlari asosida tahlil qilish.	2025-yil avgust	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi / A.Xoliqov
8.	Oliy ta'lim muassasalari uchun tayyorlangan o'quv adabiyotlari ekspertizadan o'tkazish jarayonini to'liq qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	2025-yil oktabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi / A.Xoliqov
9.	Respublika oliy ta'lim muassasalarining iqtidorli yoshlari o'rtasida kriptologiya bo'yicha fan olimpiadasini tashkil etish.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A. Xoliqov
10.	Oliy ta'lim tashkilotlari axborot-resurs markazlari fondidagi 731 ming nomdagi o'quv va ilmiy adabiyotlarni elektron shaklga o'tkazish.	2025-yil dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A. Xoliqov

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
3. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o'rganish			
1.	2025/2026-o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash jarayonlarini o'rganish.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamanazarov
2.	Oliy ta'lim tashkilotlarining yuqori kurs o'quv dasturlarini TOP-300 ga kirgan oliy ta'lim tashkilotlarining dasturlari va tajribalari asosida takomillashtirish.	2025-yil iyul-avgust	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamanazarov
3.	2025/2026-o'quv yili o'quv uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv reja va dasturlarini xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining dasturlari asosida ishlab chiqilganligini tanqidiy o'rganish.	2025-yil avgust	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamanazarov
4.	“Ta'lim to'g'risida”gi va “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida”gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha Qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / F.Fayziyev
5.	Davlat oliy ta'lim muassasalari huzuridagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ushbu muassasalar xodimlari va talabalarining farzandlarini ustuvor ravishda qabul qilish tartibini joriy etish.	2025-yil dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / F.Fayziyev
6.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030 yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2025-yil 15-maydagi PQ–184-sonli qarorining 2-ilovasi 41-bandi ijrosi: Oliy ta'lim muassasalarida ekoklublar tashkil qilish.	2025-yil sentabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / D.Umarov
7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2025-yil 15-maydagi PQ–184-sonli qarorining 7 (b)-bandi ijrosi:	2025-yil oktabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / D.Umarov

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
	Har oyda bir marotaba “ Mahallani chiqindidan xoli hududga aylantiramiz ” shiori ostida aksiyalar, tashviqot tadbirlari.		
8.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida ” 2020-yil 3-dekabrda PQ–4910-son qarorining 9.6-bandi ijrosi: Akademik litseylarda ta'lim faoliyatining tashkil etilishi, ular faoliyatini boshqarish tizimining samaradorligi, yaratilgan sharoitlar, qo'llanilayotgan ta'lim-tarbiya usullarining ta'sirchanligini o'rganish.	2025-yil dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / D.Umarov
9.	Oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarining xorijda malaka oshirish va stajirovka o'tash ulushini 15 foizga yetkazish.	2025-yil dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / D.Umarov
10.	Oliy ta'lim tashkilotlarida dars mashg'ulotlarini olib borayotgan xorijiy professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislari ulushini 8 foizga yetkazish.	2025-yil dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / D.Umarov
11.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq Xalqaro ta'lim dasturlari joriy etiladigan texnikumlarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash.	2025-yil sentabr-dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / O'.Xidirov, Sh.Sharofaddinov, J.Xalilov
12.	Xalqaro moliya institutlarining krediti, davlat budjeti mablag'lari va boshqa manbalar hisobidan oliy ta'lim tashkilotlariga yetkazib berilgan o'quv va ilmiy laboratoriya uskuna va jihozlarining saqlanishi, butligi hamda ulardan ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonida samarali foydalanish holatini monitoring qilish.	2025-yil iyul-noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / O'.Xidirov
13.	Oliy, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarida bino-inshootlar hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yangi	2025-yil iyul-sentabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi /

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
	o'quv yili va kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha belgilangan tadbirlarni sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishini o'rganish.		O'.Xidirov, J.Xalilov
14.	Barcha oliy ta'lim tashkilotlarida antiplagiat dasturlari joriy etilganlik holatini o'rganish.	2025-yil oktabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / X.Sultanov
15.	“Yagona ta'lim xizmatlari portali” ni yaratish.	2025-yil sentabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / X.Sultanov, U.Qurbonov
16.	Vazirlikning “Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish — HEMIS” axborot tizimi hamda “Yagona ta'lim xizmatlari portali” sun'iy intellektga asoslangan maxsus chat-botni joriy etish.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / X.Sultanov, U.Qurbonov
17.	Kasbiy malaka oshirish va pedagogik qayta tayyorlov jarayonlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlari (markazlar) faoliyati va ular tomonidan beriladigan diplomlar reyestrini shakllantirishga mo'ljallangan “Kasbiy va pedagogik qayta tayyorlov jarayonlarini boshqarish axborot tizimi” ni ishlab chiqish.	2025-yil oktabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / X.Sultanov, U.Qurbonov
18.	Innovatsion g'oyalar, mahsulot va texnologiyalarni yaratgan ilmiy tadqiqot tashkilotlari, ularni ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilgan tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2025-yil sentabr	Innovatsion rivojlanish agentligi, / Sh.Rajabbayev
19.	“Akademik harakatchanlik” dasturi g'oliblari tomonidan loyihalarni samarali amalga oshirganligi bo'yicha monitoringini tashkil etish.	2025-yil dekabr	Innovatsion rivojlanish agentligi / Sh.Rajabbayev
20.	“Innoweek.uz-2025” xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligini tashkil etish.	2025-yil oktabr	Innovatsion rivojlanish agentligi,

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
			/ Sh.Rajabbayev
21.	Texnikumlarda tashkil etilgan “Karyera markazlari” faoliyatini hamda ishlab chiqarish amaliyotlarni tashkil etilishini Samarqand va Navoiy viloyatlari kasbiy ta'lim muassasalari misolida joylarda o'rganish.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / Sh.Sharofaddinov
22.	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-2027-yillar uchun budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari ijrosini tizimdagi tashkilotlardan olingan birlamchi hujjatlar asosida tizimli ravishda tahliliy o'rganib borish.</p> <p>Mas'ul bo'linmalar tomonidan taqdim etilgan va umumlashtirilgan davriy hisobotlarni o'rganish va indikatorlarni bajarilmaslik xavflarini aniqlash hamda ularni baholash.</p> <p>O'rganish natijalari yuzasidan Vazirlik rahbariyatiga axborot, tizim tashkilotlariga taqdimnomalar kiritib borish, aniqlangan muammoli holatlarni bartaraf etish, kelgusida oldini olish hamda indikatorlar samaradorligini oshirish choralari ko'rish.</p>	Har chorak yakuni bilan keyingi oyning 20-sanasiga qadar	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamadaliyev, B.Turabov
23.	Sun'iy intellekt bo'yicha sohada amalga oshirilayotgan ishlar va yaratilayotgan o'quv dasturlari yuzasidan ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda axborot berib borish.	2025-yil iyul – dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / N.Abduqunduzova
24.	Nukus davlat texnika universitetida Ilg'or muhandislik maktabi faoliyatini yo'lga qo'yish.	2025-yil iyul	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / J.Musayev
25.	Farg'ona davlat texnika universitetida yuridik shaxs maqomisiz Ilg'or muhandislik maktabi faoliyatini tashkil etish.	2025-yil iyul	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, / J.Musayev
26.	Xorijiy hamkorlar bilan birgalikda sun'iy intellekt bo'yicha ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini yo'lga qo'yish.	2025-yil iyul	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi /

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
			J.Musayev
27.	Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida Ilg'or muhandislik maktabi faoliyatini tashkil etish.	2025-yil iyul	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / J.Musayev
28.	Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosining umumbashariyat ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiyani tashkil etish.	2025 yil 10-oktabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, / J.Musayev
29.	Migratsiya sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish.	2025-yil 4-oktabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, / J.Musayev
30.	Xalqaro ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlari, loyihalarning bajarilishini tizimli monitoring qilish. (Har chorakda)	Har chorakda	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / J.Musayev
31.	Fanlar akademiyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, "O'zarxiv" agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniy meros agentligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi bilan birgalikda: Muzeyni jadidlik harakatiga oid muzey ashyolari va kolleksiyalari bilan to'ldirib borishni tashkil etish.	2025-yil 25-noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, / J.Musayev
32.	Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi sohasida ta'lim, ilm-fan va tibbiyot amaliyotining o'zaro integratsiyasini kuchaytirish. Markazda bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi yo'nalishida kadrlarni qayta tayyorlash va oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti tizimini yo'lga qo'yish.	2025-yil 25-noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, / J.Musayev
33.	Aholi yashash punktlarini ko'kalamzorlashtirish uchun mevali va manzarali daraxt ko'chatlari bilan ta'minlash maqsadida	2025-yil 23-noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, /

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
	ko'chatxonalar tarmog'ini kengaytirish, na'matak, chakanda, qizilmiya kabi dorivor hamda terakning mahalliy navlari, gujum, katalpa o'simliklari plantatsiyalarini tashkil etish.		J.Musayev
34.	Farmatsevtika sohasini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash. Har yili sohadagi 30 nafar mutaxassislarni xorijiy ta'lim muassasalarida, ilmiy-tadqiqot markazlarida va xorijiy korxonalarda malaka oshirishlarini tashkil etish.	2025-yil 25-dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / J.Musayev
35.	O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlarini amalga oshirish.	2025-yil 25-dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy attestatsiya komissiyasi / J.Musayev
36.	Respublika davlat oliy ta'lim muassasalarida 2025/2026-o'quv yilida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo'yicha bitta talabani bazaviy to'lov-kontrakt shaklida bir yillik o'qitish qiymatining yangi miqdorlarini tasdiqlash.	2025-yil avgust	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, / J.Xalilov
37.	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida 2025/2026-o'quv yilida ta'lim yo'nalishlari (kunduzgi, sirtqi, kechki va dual) bo'yicha bitta o'quvchini to'lov-kontrakt shaklida bir yillik o'qitish qiymatining yangi miqdorlarini tasdiqlash.	2025-yil avgust	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, / J.Xalilov
38.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-son qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan Vazirlar Mahkamasining "Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar farzandlarining davlat oliy ta'lim muassasalari talabalar turar joylaridagi yashash xarajatlarini qoplab berish tartibini tasdiqlash haqida"gi qarorini qabul qilish.	2025-yil sentabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, / J.Xalilov
39.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-	2025-yil sentabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, / J.Xalilov

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
	tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlari xodimlari mehnatiga haq to'lashning yagona tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarorini qabul qilish.		
40.	"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida bahor mavsumida oliy, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim muassasalari tomonidan jami 200 ming tup manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlarini ekish.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / J.Xalilov
41.	Xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni kengaytirish va yanada rivojlantirish bo'yicha 2018-2025-yillarda tasdiqlangan "yo'l xaritalari"da nazarda tutilgan tadbirlarning mutasaddi vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar tomonidan o'z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta'minlash.	Doimiy	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / G'.Yoziyev
42.	O'zbekiston-Latviya ta'lim forumini tashkil etish.	2025-yil sentabr - oktabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / G'.Yoziyev
43.	O'zbekiston va Yaponiya oliygohlari rektorlarining to'rtinchi forumini tashkil etish.	2025-yil oktabr - noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / G'.Yoziyev
44.	O'zbekiston-Vengriya ta'lim forumini Xiva shahrida tashkil etish.	2025-yil oktabr - noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / G'.Yoziyev
45.	O'zbekiston-Xitoy ta'lim forumini tashkil etish.	2025-yil oktabr - noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / G'.Yoziyev
46.	Ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazish va xalqaro tadbirlarda qatnashish uchun O'zbekiston delegatsiyalarining xorijiy	2025-yil dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / G'.Yoziyev

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
	mamlakatlarga tashriflari, shu jumladan oliy va yuqori darajadagi tashriflarini tashkil etish bo'yicha takliflar tayyorlash.		
47.	Chet el delegatsiyalarining O'zbekiston Respublikasiga tashriflari dasturlarini tasdiqlash to'g'risida takliflar ishlab chiqish.	2025-yil dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / G'.Yoziyev
48.	O'zbekiston-Germaniya ta'lim forumini tashkil etish.	2025-yil IV-chorak	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / G'.Yoziyev
49.	O'zbekiston-Turkiya to'rtinchi ta'lim forumini tashkil etish.	2025-yil IV-chorak	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / G'.Yoziyev
50.	"Study in Uzbekistan" veb-portali faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qaror loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi / A.Xoliqov
51.	Diplom dublikatlarini berish davlat xizmatini yanada takomillashtirish va axborot tizimlari bilan integratsiya qilish.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi / A.Xoliqov
52.	Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida dars beruvchi xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilarni ulushini 60 foizga yetkazish.	2025-yil dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti / U.Begimkulov
53.	Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayonlariga 115 nafar xorijiy professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislarini jalb qilish.	2025-yil dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
			/ U.Begimkulov
54.	INNO Texnoparkiga diler, investor va hamkorlar jalb qilish va ularni o'rtasida shartnomalar tuzish.	Har oyda	Inno-innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparki / M.Sultanov
55.	Mahalliy kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda Inno innovatsion o'quv-ishlab chiqarish zonasida talabalar ishlab chiqarish amaliyotini joriy qilish.	2025-yil yanvar-dekabr	Inno-innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparki, / M.Sultanov
56.	Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-oktabrdagi 606-son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Inno innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparki tomonidan Innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi kichik tadbirkor "yuridik shaxs"larga prefensiyalar berish va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ko'maklashish .	2025-yil yanvar-dekabr	Inno-innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparki / M.Sultanov
57.	Tijoratlashtirishga yaroqli texnologiyalarni aniqlash va reytinglar, shuningdek, 20 ta istiqbolli ishlanma ro'yxatini shakllantirish.	2025-yil noyabr — dekabr	Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi / F.Jumayev
58.	Sanoat korxonalarini bilan hamkorlikda mavjud texnologik muammolar va ehtiyojlarni aniqlash, ularni hal etish uchun ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim muassasalari hamda innovatsion subyektlar bilan hamkorlik imkoniyatlarini shakllantirish orqali sanoatning raqobatbardoshligini oshirish va texnologik rivojlanishni jadallashtirish.	2025-yil sentabr — noyabr	Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi / F.Jumayev
59.	Oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'linma xodimlari va oliy ta'lim muassasalaridan spinn-off, startup kichik korxonalarini tashkil etgan xodimlar va barcha xohlovchilar uchun, ekspertlarni hamda mutaxassislarini jalb qilgan holda "Ilmiy ishlanmalarni loyihalash, ishlab chiqarish	2025-yil dekabr	Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi / F.Jumayev

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
	<p>va tijoratlashtirish” mavzusida tashkil etilayotgan kurslarda o'qitish. O'quv kursda ishtirok etganlar uchun maxsus sertifikatlar taqdim etish.</p> <p>Oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, mavjud muammolarga yechim topishda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalaridagi loyihalarni mahalliy ishlab chiqarish sektori bilan bog'lash va qo'llab-quvvatlashga erishish.</p>		
4. Ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligining tahlili			
1.	<p>2025/2026-o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovining respublika bosqichini tashkil etish hamda hujjat topshirgan nomzod talabalar orasidan g'oliblarni aniqlash.</p>	2025-yil sentabr — oktabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamanazarov
2.	<p>Talabalar o'qishini ko'chirish jarayonlarini muvofiqlashtirish, bunda:</p> <p>o'qishni ko'chirish to'g'risidagi arizalarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini tashkil etish;</p> <p>ro'yxatdan o'tgan arizalarni turdosh ekanligi, asoslariga ko'ra ko'rib chiqish;</p> <p>qabul qilingan arizalarni vakolatli komissiyalarga taqsimlash va yuborish;</p> <p>Vazirlik vakolatidagi arizalarni ko'rib chiqib, qaror qabul qilish;</p> <p>xorijiy va nodavlat oliygohlardan o'qishni ko'chirish bo'yicha maxsus sinovlar o'tkazish va natijasi bo'yicha qaror qabul qilish.</p>	2025-yil iyul-avgust	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamanazarov
3.	<p>Oliy ta'lim tashkilotlariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	2025-yil sentabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamanazarov
4.	<p>Oliy ta'lim tashkilotlarida maqbullashtirilgan muqobil kunduzgi ta'lim shakli (part-time education)ni tashkil etish tartibi to'g'risidagi</p>	2025-yil sentabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi /

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
	nizomni tasdiqlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		A.Mamanazarov
5.	Xorijda istiqomat qilayotgan yosh vatandoshlarning respublika davlat oliy ta'lim muassasalariga kirishi uchun davlat grantini taqdim etish bo'yicha respublika tanlovni o'tkazish hamda yuqori natija qayd etgan talabgorlarni grant asosida talabalikka tavsiya etish.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamanazarov
6.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti respublika tanlovini o'tkazish hamda eng yuqori natija qayd etgan talabgorlarni saralab olish.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamanazarov
7.	“Kasbiy ta'lim” platformasining ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish hamda “Elektron hukumat” tizimi bilan integratsiyasini ta'minlash.	2025-yil sentabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / X.Sultanov, Sh.Sharofaddinov
8.	Vazirlikning raqamli ma'lumotlar bazalaridagi ma'lumotlarni Idoralararo integratsiyalashuv platformasiga doimiy asosda taqdim etib borish holatini tahlil qilish.	2025-yil dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / X.Sultanov
9.	Texnikumlarga 2025/2026-o'quv yili uchun tasdiqlangan qabul parametrlari doirasida 140 ming nafar umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini qabul qilish.	2025-yil iyul	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / Sh.Sharofaddinov
10.	Texnikumlarga 2025/2026-o'quv yili uchun tasdiqlangan qabul parametrlari doirasida 170 ming nafar umumta'lim maktablarining 11-sinf bitiruvchilari va kasb o'rganish istagidagi fuqarolarni qabul qilish.	2025-yil avgust — sentabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / Sh.Sharofaddinov
11.	Texnikumlar o'quv jarayoniga Germaniyaning ilg'or tajribalari va metodikalari asosida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini joriy qilish.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / Sh.Sharofaddinov

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
12.	Texnikumlarda tayyorlanadigan kasb va mutaxassislar umumkasbiy va maxsus fanlaridan 46 nomda 17 090 nusxadagi yangi adabiyotlarni chop etish hamda ta'lim tashkilotlariga yetkazish.	2025-yil dekabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / Sh.Sharofaddinov
13.	Moratoriy davrida oliy ta'lim muassasalarida barcha manbalardan sarflanadigan mablag'larning maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va joriy nazoratni olib borish uchun javobgarlik oliy ta'lim muassasalari ichki nazorat tizimi mas'ullari zimmasiga yuklatilgan. Yuqorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari ichki audit xizmatlari tomonidan 2025-yilda o'tkaziladigan nazorat tadbirlarini mavzuli nazorat asosida tashkil etish.	Har chorakda	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / B.Turabov
14.	Oliy ta'lim tashkilotlari matbuot kotiblari faoliyati reytingini yo'lga qo'yish.	2025-yil sentabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / N.Abduqunduzova
15.	2025/2026-o'quv yiliga tayyorgarlik yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, talabalarga qulaylik yaratish maqsadida yo'lga qo'yilgan imtiyoz va yangiliklarni keng jamoatchilikka yetkazish yuzasidan matbuot anjumani o'tkazish.	2025-yil sentabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / N.Abduqunduzova
5. Ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarida islohotlarning amalga oshirilishini O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri huzurida ko'rib chiqish (majlis, sayyor majlis, taqdimot)			
1.	2025/2026-o'quv yilida respublika oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qabul natijalarini tahlil qilish va tasdiqlash.	2025-yil noyabr	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi / A.Mamanazarov